

**RESEARCH ARTICLE**

# Chinese-Adapted Food And Beverage Names: Origins And Lexical-Semantic Features

**Mahliyo Fayzullayeva**

Master's Student Tashkent State University of Oriental Studies Toshkent, Uzbekistan

**VOLUME:** Special Issue 2026

**PAGE:** 107-109

Copyright © 2026 European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, this is an open-access article distributed under the terms of the Creative Commons Attribution-Noncommercial-Share Alike 4.0 International License. Licensed under Creative Commons License a Creative Commons Attribution 4.0 International License.

## Abstract

This article examines the distinctive features of food names borrowed into the Chinese language from other languages. Particular attention is given to the origins, lexical-semantic characteristics, sources, and phonetic adaptation of certain units that entered Chinese as a result of globalization, international trade, and cultural interaction. The material presented in the article is significant for understanding the dynamics of lexical change in Chinese and for evaluating cross-linguistic influence.

## KEY WORDS

Names of dishes and food items, borrowing, etymology, phonetic adaptation, Chinese culture and philosophy.

## INTRODUCTION

Hozirgi globallashuv davrida ingliz tili eng nufuzli jahon tili darajasiga chiqqanligi va dunyoning barcha tillariga ushbu tildan so'zlar o'zlashishi jarayoni jadallashgani sir emas. Bugunga kelib salkam 1,5 mlrd. kishi so'zlashayotgan xitoy tili ham bundan mustasno emas. Xitoyda ham kishilar, ayniqsa yoshlar ingliz tilini o'rganishadi. Xitoylik yoshlarning nutqida inglizcha so'zlardan foydalanish modaga aylangani va buning zamonaviylik va bilimdonlik alomati sifatida qabul qilinayotgani ham haqiqat. Buni har sohada, ilm-fanda, texnologiyalarda, biznes, kundalik madaniy hayotda yaqqol ko'rish mumkin.

Zamonaviy xitoy tiliga xorijiy so'zlarning o'zlashishi bilan bog'liq jarayonlarni o'rganish ushbu maqola oldida turgan asosiy maqsad hisoblanadi. Tanlangan mavzuning dolzarbligi so'nggi yillarda xitoy tiliga xorijiy tillardan kirib kelgan yemak va yegulik nomlarining xitoy oshxonasi bilan bog'liq leksik qatlamning tilshunoslikdagi ahamiyati bilan belgilanadi. Gap shundaki, xitoy tilining tuzilish xususiyatlari o'zlashgan xorijiy leksikaning tilga chuqur kirib borishiga ma'lum darajada to'sqinlik qiladi.

Ushbu maqolada xitoy tiliga o'zlashgan yemak va yegulik

nomlari va ularni o'zlashtirish usullari, tilga ajnabiy leksikasining faol kirib kelishiga sabab bo'layotgan omillar xususida so'z boradi.

Aslida hech bir til mustaqil, ihtalangan holda rivojlana olmaydi. So'z o'zlashtirish tilning taraqqiyot tamoyillaridan biri hisoblanadi. Demak, xitoy tiliga yemak va yegulik nomlarining o'zlashishi ham qaysidir bir jihati bilan tilning boyishi uchun material beradi.

Xitoy oshxonasi dunyoning ko'zga ko'ringan uch mashhur oshxonasidan biri bo'lganligi bois, uning taomnomasini tashkil etuvchi yemak va yegulik nomlari juda ko'p. Ta'bir joiz bo'lsa, butun bir leksik zahirani tashkil qiladi. Taom nomlari xitoy tilida chuqur tarixiy madaniyat, xalqning urf-odatlar va mahalliy koloritni o'zida namoyon qiladi. Birinchi galda xitoy milliy taom nomlari haqida gapiriladigan bo'lsa, ular xitoyning tili, tarixi, adabiyotiga borib taqaladi. Biroq xitoy taomnomasidagi o'zlashgan yemak va yegulik nomlari kichik, lekin muhim bir bo'lakni tashkil etadi.

Xitoy tilida shunday ibora bor: 民以食为天 [mín yǐ shí wéi]

tiān]. So'zma-so'z tarjimasi: Xalq uchun ovqat – osmon kabi. Bu ibora odamlar hayotida taom – eng zarur ehtiyojlardan biri ekanini bildiradi. Ya'ni, xalqning farovonligi, tinchligi, hayoti avvalo taomga bog'liq. Bundan taomga oid tushunchalar alohida leksik qatlamni shakllantirgani namoyon bo'ladi.

Xitoy tilde taomni atash uchun bir qator iyerogliflar da qo'llaniladi: taom, ya'ni ovqat, yemak ma'nosida 菜[cài] va 饭[fàn] iyerogliflari, shuningdek, yegulik ma'nosida 食物[shíwù] iyeroglifi qo'llaniladi. Ushbu leksemalarning mazmun va qo'llanish doiralari o'zaro farqlanadi. 菜[cài] bugungi zamonaviy xitoy tilida asosan "pishirilgan taom", ya'ni ma'lum retsept asosida tayyorlangan issiq ovqat ma'nosida qo'llaniladi. Masalan, 中国菜 – "xitoy taomlari", 家常菜 – "uy taomlari". Demak, bu birlik o'zbek tilidagi "taom" so'zining eng yaqin muqobildir.

饭[fàn] iyeroglifi esa ikki xil ma'noda keladi: 1. Pishgan guruch, 2. Umumiy ovqatlanish jarayoni. Bu zamonaviy nutqda eng ko'p qo'llanadigan so'zdir. Masalan, 吃饭 – "ovqatlanmoq", 晚饭 – "kechki ovqat". Shu bois ushbu birlik ovqat, nonushta-tushlik-kechki ovqat kabi umumiy tushunchalarga mos keladi va bunda ma'lum bir taom emas, balki umumiy ovqatlanish jarayoni anglashiladi.

食物[shíwù] esa neytral xarakterga ega bo'lib, "iste'mol qilinadigan mahsulot", ya'ni yegulik, undan ham aniqroq ifodalanadigan bo'lsa "yemak" demakdir. Ushbu leksema pishirilgan yoki pishirilmagan bo'lishidan qat'i nazar, iste'mol uchun mo'ljallangan har qanday tayyor mahsulotni bildiradi. Shu jihati bilan u o'zbek tilidagi "yegulik", "yemak" so'zlariga to'g'ri keladi.

Sanab o'tilgan bu uch iyeroglif orasidagi semantik tafovut tarjima jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xitoycha taom nomlarining yana bir o'ziga xos jihati shundaki, ularning ko'pchiligida mahsulot nomi, hatto uni tayyorlash usuli, ta'mi, hatto qaysi hududga tegishli ekanligi ham ko'zda tutiladi. Masalan:

- mahsulot nomi (肉 – go'sht, 鱼 – baliq);
- tayyorlash usuli (炒 – qovurmoq, 蒸 – bug'da pishirmoq);

- ta'm xususiyati (辣 – achchiq, 酸 – nordon);
- hududiy belgi (北京, 四川).

Taom nomlari 3 xil model asosida shakllangan bo'ladi:

- Tayyorlash usuli + mahsulot nomi (炒饭 – qovurilgan guruch);
- Mahsulot nomi + tayyorlash shakli (肉丝 – ingichka to'g'ralgan go'sht);
- Hudud nomi + taom nomi (北京烤鸭 – Pekin usulida qovurilgan o'rdak).

Shuningdek, ko'plab taom nomlari o'zida ma'lum bir mahalliylikni, ya'ni hudud yoki muayyan an'anaviy uslubga mansublikni ham aks ettiradi. Xitoy hududlari bir-biridan oshpazlik usullari bilan farq qilgani uchun ko'p taomlar aynan o'sha joy nomi bilan birga qo'llanib ketgan. Bu holat nomlarni shakllantiruvchi muhim omil hisoblanadi. Ba'zan esa taomning tashqi ko'rinishi yoki uning xalqqa yaxshi tanish bo'lgan majoziy belgisi uning nomlanishiga asos bo'lishi mumkin.

Xitoy tili dunyodagi eng qadimiy va boy, boshqa tillardan so'z o'zlashtirishga ehtiyoj sezmagani til bo'lish bilan birga, vaziyat taqozosi bilan ajnabiy unsurlar kirib kelishiga ham to'sqinlik qilmaydi. Shuni ham ta'kidlash joizki, xitoy tilidagi eng qadimgi iyerogliflar tarixi miloddan avvalgi II ming yilliklarga borib taqaladi. Shu boisdan o'zga tillardan leksik elementlar o'zlashib qolgan bo'lishi mumkinligini istisno qilib bo'lmaydi.

Xitoy oshxonasining taomnomasi minglab yillik shakllanish tarixiga ega, biroq har tilda bo'lgani kabi XX asr oxiri va XXI asrning boshi alohida bosqichni tashkil etadi. Agar 1950-1960-yillarga qadar xitoy milliy oshxonasi taomnomasini asosan mahalliy taom va yeguliklar tashkil etgan bo'lsa, o'tgan asrning 80-yillaridan boshlab, aniqrog'i Xitoy Xalq Respublikasida "Ochiq eshiklar siyosati" amal qila boshlagach, McDonald's (麦当劳), KFC (肯德基), Pizza Hut (必胜客) kabi xalqaro oshxona tarmoqlari kirib kelishi bilan xitoy taomnomalarida inglizcha, italyancha va boshqa yevropa tillaridan ko'plab fonetik va semantik o'zlashmalar paydo bo'la boshladi.

Ma'lumki, har qanday o'zlashgan so'z tilga o'zi bilan birga o'sha tushuncha, predmet, mahsulot yoki mavzu doirasida aytiladigan bo'lsa, yangi taomni ham olib keladi. Xalqaro taomlarning kirib kelishi xitoy tilidagi taom nomlarining

tarkibiga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi. Natijada tilga turli fonetik o'zlashmalar, ma'no jihatdan moslashtirilgan taom nomlari va aralash shakldagi yangi birliklar kira boshladi. Endi biz aynan xitoy tiliga o'zlashgan ushbu taom nomlarini ularning kelib chiqishi va leksik-semantik xususiyatlari asosida ko'rib chiqamiz. Xitoy tilida uchraydigan bunday o'zlashmalar orasida eng avvalo keng tarqalgan va ommaviy iste'molga kirib qolgan gastronomik birliklarni ko'rish mumkin. Bu nomlar ko'pincha xalqaro brendlar, global taom madaniyati, fastfood tarmoqlari yoki Yevropa oshxonasi bilan bog'liq bo'lib, ular xitoy tiliga turli usullar orqali kirib kelgan. Quyida xitoy tiliga o'zlashgan eng mashhur taom nomlarining ayrimlari va ularning shakllanish xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

Xitoy tiliga o'zlashgan yemak va yegulik nomlarining kelib chiqishga e'tibor qaratiladigan bo'lsa, ularning o'ziga xos o'zlashish usuli borligi namoyon bo'ladi, Masalan, qahva (coffee) mahsulotining paydo bo'lish tarixi Arabistonga borib taqaladi, ya'ni uni dastlab arablar tetiklashtiruvchi ichimlik sifatida iste'mol qilishgan. Yillar o'tishi bilan ushbu ichimlik boshqa mamlakatlarga ham o'tib, keng tarqala boshlagan, "qahva" (coffee) atamasi XIX asr boshlarida Gonkong va Shanxay orqali Xitoyga kirib, 咖啡 [kāfēi] shaklida o'zlashtirilgan. Ierogliflar lug'aviy ma'noga ega emas, faqat tovushni ifodalash uchun tanlangan. Shu tarzda, "shokolad" inglizcha chocolate so'zidan fonetik yo'l bilan 巧克力 [qiǎokèlì] shaklida o'zlashtirilgan bo'lib, 巧 "mahorat", 克 "yengmoq", 力 "kuch" kabi ma'noni bildiradi. Italyancha pizza esa 披萨 [pīsa] shaklida kirgan va ierogliflar mazmun yaratmaydi, faqat fonetik moslashuvni ifodalaydi.

Shuningdek, boshqa keng tarqalgan o'zlashmalar quyidagilar:

汉堡 [hànbǎo] - hamburger: Inglizcha hamburger so'zidan fonetik tarzda olingan. Ierogliflar lug'aviy ma'noni ifodalamaydi, faqat tovushni moslashtirish uchun ishlatilgan.

三明治 [sānmíngzhì] - sendvich: Inglizcha sandwich so'zidan transliteratsiya qilingan.

可乐 [kělè]- kola ichimligi (Coca-Cola): Inglizcha cola so'zidan olin-gan. Ierogliflar lug'aviy ma'noga ega bo'lmagan holda fonetik mos-lik yaratadi.

咖喱 [gālí] – kari: Inglizcha curry so'zidan fonetik o'zlashuv or-qa-li kirgan, mazmundan qat'iy nazar, tovushni saqlaydi.

意大利面 [yìdàlì miàn] – makaron (Italian pasta): Inglizcha va ita-l-yan-cha so'zlar fonetik va semantik jihatdan moslashtirilgan hol-da kirgan.

奶茶 [nǎichá] - sutli choy (milk tea): Bu nom inglizcha milk tea-dan o'zlashtirilgan bo'lib, tarkibi va ma'nosi nomda aks etadi.

Xulosa. Xitoy tiliga boshqa tillardan o'zlashgan taom va yegulik nom-lari fonetik, morfologik va semantik jihatdan turlicha bo'lsa-da ular xitoy tilining leksik zahirasini yanada boyitadi va global gastro-no-mik madaniyatni o'zida aks ettiradi. O'zlashgan taom nomlari til ti-zi-mida fonetik, semantik va madaniy moslashuv jarayonlaridan o'tib, xitoy leksikasining faol qatlami tarkibiga singib borishi jara-yo-ni-ning murakkabligi o'zlashmalar tarkibidagi ma'no kengayishi, shakl o'zgarishi va madaniy mazmunning qayta talqin qilinishi or-qa-li yaqqol namoyon bo'ladi.

## REFERENCES

1. 《现代汉语词典》，商务印书馆，2016. - 431-p.
2. 杨琳申楠。论跨文化传播中我国文化软实力。西安：西安交通大学学报(社会科学版)，2012 年。- 210 页
3. 张静。《饮食文化与汉语词汇变迁》。北京：语言大学出版社，2018. -198 页。
4. Anderson, E. N. The Food of China. New Haven: Yale University Press, 1988. - 284 p.
5. Taylor, Insup & Taylor, M. M. Writing and Literacy in Chinese, Korean and Japanese. Amsterdam: John Benjamins, 2014. - 412 p.
6. Кочергин, И. А. Китайский язык: Лексикология. - Москва: Восточная литература, 2012. - 256 с.
7. Сыроежкин, К. Л. Китайская цивилизация: традиции питания и культура. - Москва: Наука, 2010. - 310 с.
8. Qo'ng'urov, R. Xitoy tili leksikologiyasi. - Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2020. - 180 b.
9. Tursunova, M. Xitoy tilining tarixiy grammatikasi va lug'at tarkibi. - Toshkent: Nodir nashr, 2019. - 210 b.